

**INNOVATSION TA’LIM SHAROITIDA OLIY TA’LIM MUASSASASI
TALABALARINI ZAMONAVIY O’QITISH METODLARI ORQALI
KASBIY MAHORATINI OSHIRISHDA FOYDALANISH TAMOYILLARI**

Ruziyeva Dilafro‘z Muminovna

*Buxoro davlat pedagogika instituti “Texnologik ta’lim”
kafedrasи o‘qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada innovatsion ta’lim sharoitida oliy ta’lim muassasasi talabalarini zamonaviy o’qitish metodlari orqali kasbiy mahoratini oshirishda foydalanish tamoyillari haqida zarur fikr-mulohazalar yuritilgan hamda kerakli xulosalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim, zamonaviy o’qitish, kasbiy mahorat, tamoyil, metod, dars, ta’lim, tarbiya.

Kirish. Har bir davlatning ertangi kuni va kelajagi fuqarolarining intellektual salohiyatiga, madaniyati, buniyodkorligiga va ta’limga bo‘lgan e’tiboriga tayanadi. Zero, eski ta’lim-tarbiya asosida yangi jamiyat qurib bo‘lmagani kabi mamlakatimiz kelajagi, shubhasiz kadrlar tayyorlash masalasiga bevosita bog‘liq hisoblanadi.

Yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.” Shundan kelib chiqib aytish joizki, yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarni egalagan barkamol, tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo‘lish uchun ta’lim-tarbiya tizimni tubdan o‘zgartirish, hozirgi davr talablarini darajasida rivojlantirish muhim ekanligini hayot taqozo etmoqda. Pedagog innovatsion faoliyatining eng muhum va markaziy masalasi o‘quv jarayonini samarali va sifatli tashkil etishdan iborat.

Ta’limda innovatsiyani, shu jumladan, o‘qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini keng joriy etilishi bugungi kunda juda tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Ta’lim tizimini boshqarish organlari har yili ta’lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga va bugungi kun talablariga mos keladigan kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Olib borilayotgan amaliy harakatlar talabalarni yutuqlarga erishishiga hamda olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojni muayyan

darajada yuzaga keltirishi hamda ularning kasbiy qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda.

Ta’lim oluvchilar bilimi, ko’nikmasi va malakalari zamon talablariga javob beradigan darajada bo‘lishini ta’minalash maqsadida pedagog xodimlarga yuklangan vazifalar nihoyatda salmoqli va mas’uliyatlidir. Bu vazifani ado etish uchun o‘qituvchilar qaysi turdagi ta’lim muassasasida mehnat qilishidan qat’iy nazar doimiy ravishda o‘z ustilarida mustaqil ishlashlari, malakalarini oshirib borishlari va ilmiy ijodiy izlanishlari zarurdir. Davlat ta’lim standartlari talablarini bajarish majburiyligi nuqtai nazaridan ham o‘qituvchining kasbiy kompetentlik darajasi davr talabiga mos kelishi muammo yechimini ijobiy hal etilishini ta’minalashi shubhasiz.

Ana shu maqsadda o‘qituvchilar tomonidan ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlarini keng qo’llash zarurati mavjuddir. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo’llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko’tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo’llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Zamonaviy tilda bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda - ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo’llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi.

Ta’lim oluvchi esa butun jarayon davomida faol ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo’llab- quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur? Avvalo u o'z mutaxassisligi bo'yicha ta'lim beradigan fanlardan pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslarni ta'minlashi, pedagogik va axborot texnologiyalari hamda o'quvchilar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llashi, o'quv mashg'ulotlarida pedagogik va axborot texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini uyg'unlashtirish malakasiga ega bo'lishi, ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitish mazmuniga mos ravishda pedagogik tizimni loyihalay olishi, ta'lim beradigan fanlar turkumini rivojlantirish istiqbollarini ohib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni muntazam amalga oshira olishi zarur.

O'qituvchi avvalo o'quv-tarbiyaviy jarayoni va uning tashkil etuvchilarini samarador texnologiyalardan foydalanishi uchun har bir konkret holat uchun ularni to'g'ri tanlab olishni, diagnostikalashni, oldindan bilishni va berilgan daraja va sifat jarayonini loyihalashni juda yaxshi bilishi zarur. Dars mazmunining qay darajada yetkazib berilishi va tinglovchilar tomonidan nazariy hamda amaliy ko'nikmalarning o'zlashtirilishi ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ana shunday talablarga javob beradigan malakali mutaxassisning mahoratli pedagoglar tomonidan "Mahorat darslari"ni o'tkazilishi ham ta'lim sifati va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishini belgilovchi omil hisoblanadi.

Mahorat darslari qo'llanish sohalari va ko'lamiga ko'ra qamrovi keng tushuncha hisoblanadi. Ta'lim tizimida "Master klass" yoki "Mahorat darslari" haqida so'z borar ekan, qadim Xitoy sivilizatsiyasini quyidagi hikmatli so'zlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: "Menga ayting va men unutaman", "Menga ko'rsating va men eslab qolaman" va "O'zimni harakat qilishga ijozat bering va men o'rganaman".

Bizningcha, barcha ta'lim tizimlarida mavjud fanlarni o'qitishda yuqorida keltirilgan xitoy hikmatlariga asoslanishi kerak. Har bir "Mahorat darslari" zamonaviy bilim berish usullari yuzasidan tajriba almashish, kasb-hunar maktablari o'qituvchilarining fan nazariyasi va metodikasiga oid bilimlarini mustahkamlash, amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga oid yangi usullar bilan tanishtirish, fanlar bo'yicha yangi yaratilgan metodik qo'llanmalar, testlar, axborot resurslaridan o'quv jarayonida samarali foydalanishlariga yordam berish, shuningdek, doimiy tarzda o'qituvchilarning kasbiy mahoratini uzlusiz ravishda oshirib borish maqsadida o'tkaziladi.

"Mahorat darsi" o'tkazadigan har bir pedagog o'zi o'qitadigan fan va bu fan bilan chambarchas bog'liq fanlarni a'llo darajada bilishi, raqobatbardosh kadrlar sifatida faoliyat olib borishi, yuqori kompetentlik va kreativlikka (ijodkorlik) ega kadrlarni tayyorlash orqali aholining turmush darajasining yaxshilanishini ko'rish mumkin. Buning uchun ta'lim muassasalarida olib boriladigan mahorat darslari (master-klass) ning o'rni alohida ahamiyatga ega.

"Mahorat darslari" da o'qituvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri va oqilona tashkil etish maqsadida ilg'or pedagogik texnologiyalarning elementlari bo'lgan "Aqliy hujum", "Klaster", "Zinama-zina", "Zanjir", "Kichik guruhlari ishi", "Venn diagrammasi", "Taqdimot", "Tushunchalar bilan ishlash", "Rasm bilan ishlash", "Baliq skeleti", "Blis so'rov" va shu kabi bir qancha pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanib, interfaol metodlardan dars jarayonida foydalanish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bo'yicha dolzarb bo'lgan mavzular asosida nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib boriladi va fanga oid

kompetensiyalar shakllantiriladi. Bu esa fan o'qituvchisining kelgusidagi pedagogik faoliyatiga yordam berib, ta'lim sifatini oshirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchilar tomonidan o'tkazilgan har bir mahorat darslarida fan o'qituvchilarning, pedagogik mahorat almashinushi, pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi uslublari, ularning faolligi, bilimi, kreativligi, kasbiy mahorati oshib boradi, shular asosida o'tiladigan fan o'quvchilarining darslarni yuqori saviyada o'tishiga, o'quvchilarning esa bilim darajasini yuqori bo'lishiga, dars samaradorligini oshirilishiga olib keladi.

Dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar faolligini oshirish, berilgan vazifaga mas'uliyat bilan yondashish, o'z iqtidorini ko'rsatishda o'qituvchilar katta yordam beradi. O'qituvchilar mahorat darslarini o'tishda qiziqarli o'qitish usullarini izlab topishga, ijod qilishga to'g'ri keladi, hamda ta'lim mazmunini bayon etish uchun bor kuchini, mahoratini ishga solib, dalil, ko'rgazmali qurol, didaktik tarqatma materiallar yordamida tushuntirishga harakat qiladi. O'qituvchilar o'zaro mavzu, metodlar, ijodiy ishlar, amaliy topshiriqlar, uy ishlarini, mustaqil ishlash, takrorlashlar yuzasidan fikr, tajriba almashadi, laboratoriya ishlari bajaradilar.

Xulosa. Pedagogning kasbiy mahorati - pedagogik jarayonda tarkib topadi. Pedagogik jarayon esa kasbiy va shaxsiy tayyorlarlikni yo'lga qo'yib, bo'lajak mutaxassisni mehnatga, hayotga tayyorlash uchun davlat, jamiyat, millat va kelajak avlod oldida javob beradigan mutaxassislarini tayyorlashga xizmat qiladi. Shuning uchun, mutaxassis shaxsiy va kasbiy fazilatlar egasi bo'lishi lozim. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, pedagoglarni darsga tayyorlanish jarayonida ta'limning "Mahorat darsi" shaklidan foydalanishda darslarni noan'anaviy tarzda tashkil qilinishi, o'quvchilarini darslarga katta qiziqish bilan qatnashishlarini ta'minlaydi, o'quvchilar darslarga avvaldan tayyorlanib keladilar, kelgusi dars qaysi mavzu bo'lishiga e'tibor qaratadi. Kasbiy mahorat ega bo'lgan, muvaffaqiyatlarga erishgan o'quvchilar tomonidan "Mahorat darslari"ning o'tilishi ta'lim sifati va o'quvchilarning kasbiy mahoratini oshishiga sabab bo'ladi. O'z kasbining mohir ustalari yetuk shogirdlarni

yetishtirib, davlat ravnaqiga o‘z hissalarini qo‘sadi. Ya’ni, aytish mumkinki, kasbiy mahorat sifatli ta’limni belgilab beruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi!

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kazakov, F., Rajabov, I., Umirov, J., Ruziyeva, D., & Aripova, A. (2021, November). Methods to improve hackles in the production of quality yarn. In Journal of Physics: Conference Series (Vol. 2094, No. 4, p. 042091). IOP Publishing.
2. Mardonov S. E. et al. Development of a new composition for sizing the warp thread //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. – 2020. – T. 7. – №. 6. – C. 14044-14048.
3. Ruziyeva D. M., Madinabonu Y. REFORMS IN THE FIELD OF MEDICINE DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE (IN THE CASE OF NAVOI REGION) //Conferencea. – 2022. – C. 178-183.
4. Ruzieva D. CLASSIFICATION OF SOFTWARE EDUCATIONAL TOOLS FOR USE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM //International Conference On Higher Education Teaching. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 41-45.
5. Ruzieva D. M. FEATURES AND ADVANTAGES OF THE STRUCTURE OF BAKED THREADS USED IN THE PREPARATION OF SEWING PRODUCTS //GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 17. – C. 401-408.
6. Гафурова Н. Т., Арипова А. Н. К., Рузиева Д. М. РОЛЬ ЯЗЫКА В РАЗВИТИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ //Архивариус. – 2021. – Т. 7. – №. 8 (62). – С. 20-23.
7. Muminovna R. D. TIKUV BUYUMLARINI TAYYORLASHDA ISHLATILADIGAN PISHITILGAN IPLARNING TUZILISH XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI //SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2023. – Т. 6. – №. 10. – С. 21-25.
8. ГАФУРОВА Н. Т., АРИПОВА А. Н. К., РУЗИЕВА Д. М. Учредители: Серенити-Груп, Буткевич Виктор Васильевич //АРХИВАРИУС Учредители: Серенити-Груп, Буткевич Виктор Васильевич. – 2021. – Т. 7. – №. 8. – С. 20-23.
9. Ubaydillayevna D. N. et al. ZAMONAVIY O‘ZBEK MILLIY LIBOSLARI NAMUNALARINI TAYYORLASH ORQALI YOSH AVLODGA AJDODLARDAN QOLGAN MEROSNI O‘RGATISH //PEDAGOGS. – 2024. – Т. 53. – №. 1. – С. 18-24.
10. Рузиева Д. М. СЕКРЕТЫ ШИТЬЯ И ЕГО СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 35. – С. 282- 286.
11. Tohirovich R. E. et al. The Importance of Using Graphics Programs in The Design of Sewing Items //Web of Teachers: Inderscience Research. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 5-8.
12. Rayimova D. D. et al. TEXNOLOGIYA TA’LIMI PRAKTIKUMI FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH IMKONIYATLARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 616-619.